



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 109-115 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI



Ovlayev Suhrob Temur o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Audit kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda sug'urta kompaniyalarida moliyaviy axborotlarning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini ta'minlash, sug'urta zaxiralari hamda majburiyatlarini baholashda xalqaro yondashuvlarni qo'llash masalalari tahlil qilindi. Natijada sug'urta tashkilotlarida xalqaro standartlarni joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: sug'urta tashkiloti, sug'urta bozori, moliyaviy hisobot, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish, xalqaro standart, risk, SWOT tahlil, to'lovga qodirlik, sug'urta zaxiralari.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические и практические аспекты применения международных стандартов финансовой отчетности в повышении финансовой устойчивости страховых организаций. Рассмотрены вопросы обеспечения прозрачности, достоверности и сопоставимости финансовой информации, а также использования международных подходов при оценке страховых резервов и обязательств. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на укрепление финансовой устойчивости страховых организаций.

Ключевые слова: страховая организация, страховой рынок, финансовая отчетность, финансовая устойчивость, экономический рост, международный стандарт, риск, SWOT-анализ, платежеспособность, страховые резервы.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of applying International Financial Reporting Standards to strengthen the financial stability of insurance organizations. The study analyzes transparency, reliability and comparability of financial information, as well as international approaches to measuring insurance reserves and liabilities. Based on the results, scientific and practical recommendations are proposed for improving the financial stability of insurance organizations through the implementation of international standards.

Keywords: insurance organization, insurance market, financial reporting, financial stability, economic growth, international standard, risk, SWOT analysis, solvency, insurance reserves.

1. Kirish

Jahon iqtisodiyotida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshirish hamda iqtisodiy o'sishning uzluksizligini qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda sug'urta sektori iqtisodiy subyektlar faoliyatida yuzaga keladigan risklarni kamaytirish, moliyaviy yo'qotishlarni qoplash va investitsion resurslarni shakllantirish orqali alohida ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy sektorni rivojlantirish dasturlarida moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va bozor ishtirokchilari o'rtasida ishonchni mustahkamlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi. Sug'urta tashkilotlari faoliyatida esa bunday ishonchning asosiy manbai ularning moliyaviy hisobotlarida aks etadigan axborotlarning shaffofligi, ishonchliligi va xalqaro mezonlar asosida taqqoslanuvchanligidir.

O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishi, milliy sug'urta tizimining xalqaro va xorijiy sug'urta bozorlari bilan integratsiyalashuvi hamda investorlar uchun tushunarli moliyaviy axborotlar bazasini yaratish moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda. Xalqaro standartlar sug'urta tashkilotlarining real moliyaviy holatini baholash, kapital yetarililigini aniqlash, sug'urta zaxiralari va majburiyatlarini to'g'ri aks ettirish imkonini beradi.

Sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini uzluksiz, hujjatlashtirilgan va tizimli tartibda qayd etish hamda umumlashtirish orqali moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalqaro standartlar asosida yuritiladigan hisob tizimi sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, qayta sug'urta operatsiyalari, sug'urta zaxiralari, operatsion xarajatlar va investitsion faoliyat natijalarini aniq baholashga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish mavzusi dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sug'urta tashkilotlarida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo'llashning ahamiyatini asoslash hamda ularni samarali joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

1. Financial Sector Assessment Program (FSAP). International Monetary Fund ma'lumotlari asosida.

2. World Bank. IBRD Financial Statements, June 2019.

2. Adabiyotlar sharhi

Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni shakllantirish masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. T.V. Polaznova sug'urta tashkilotining moliyaviy va mulkiy holatini tavsiflovchi asosiy obyekt sifatida sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, sug'urta agentlari va brokerlariga to'lanadigan komissiyalar, qayta sug'urta to'lovlari, sug'urta zaxiralari hamda operatsion xarajatlarni alohida ajratib ko'rsatadi.

N.N. Kuzminov sug'urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobining mohiyatini ochib berishda risklarni boshqarish masalasiga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, risklarni kamaytirishning asosiy yo'nalishlari risklarni oldindan ogohlantirish, ularni

mahalliyashtirish hamda tasodifiy risklar natijasida yuzaga kelgan zararlarni qoplashdan iborat.

A.L. Alekrinskiy, T.A. Arxangelskaya va S.N. Asabina sug'urta kompaniyasining buxgalteriya siyosati tashkilotning mulkiy va moliyaviy holatini tartibga soluvchi hujjatlarga asoslanishi, bu esa ishonchli moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

V.I. Petrova sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini tayyorlash buxgalteriya balansi va uning ilovalarida aks ettiriladigan hisob ma'lumotlari hamda hisobot shakllariga asoslangan ko'rsatkichlar tizimi ekanligini qayd etadi.

M.X. Xodjayeva sug'urta faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishda sug'urta mukofotlari, sug'urta summalari tushumi, maxsus sug'urta fondlari va zaxiralarini shakllantirish hamda moliyaviy natijalarni aniqlash masalalarini ilmiy jihatdan yoritgan.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni oshirish buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning yagona, shaffof va xalqaro standartlarga mos tizimini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganildi. Mavzuni yoritishda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, statistik tahlil, SWOT tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali milliy hisob tizimi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining sug'urta tashkilotlari faoliyatidagi o'xshash hamda farqli jihatlari ko'rib chiqildi. SWOT tahlil orqali xalqaro standartlarni joriy etishning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda xavflari baholandi. Statistik tahlil esa sug'urta tashkilotlari faoliyatiga oid asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini aniqlashga xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda mavjud muammolarni tizimli tarzda baholash imkonini berdi.

4. Natijalar tahlili va muhokama

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda sug'urta bozori iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi muhim moliyaviy institutlardan biri hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari iqtisodiyotda risklarni qayta taqsimlash, investitsion resurslarni jamlash, aholining moliyaviy himoyasini kuchaytirish va biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi sharoitda sug'urta munosabatlarini rivojlantirish, potensial sug'urtalanuvchilarning ishonchini oshirish va faoliyat shaffofligini ta'minlash sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro talablar asosida tayyorlashni talab etadi. Chunki moliyaviy hisobotlar nafaqat ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish, balki investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarning manfaatlari turlicha bo'lib, ularning har biri hisobot ma'lumotlari asosida alohida iqtisodiy qaror qabul qiladi. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchi asosiy subyektlar va ularning axborotga bo'lgan ehtiyojlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchi subyektlar va ularning axborotga bo'lgan ehtiyoji

T/r	Foydalanuvchilar	Foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyoji
1	Aksiyadorlar	Dividend siyosati va kapital rentabelligi
2	Investorlar	Iqtisodiy samaradorlik va investitsiya jozibadorligi
3	Kreditorlar	Moliyaviy barqarorlik va to'lovga qodirlik
4	Milliy va xorijiy banklar	Kontragent faoliyatining ishonchliligi va boshqaruv samaradorligi
5	Davlat soliq qo'mitasi	Faoliyat natijalari bo'yicha soliqlar va majburiy to'lovlar
6	Boshqa vakolatli davlat organlari	Milliy daromad, statistik ko'rsatkichlar va nazorat axborotlari
7	Xodimlar	Ish haqi, mehnat sharoiti va ijtimoiy kafolatlar to'g'risidagi ma'lumotlar

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va amaliy ma'lumotlar asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari turli foydalanuvchilar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu bois moliyaviy axborotlar xalqaro standartlarga mos, shaffof, ishonchli va taqqoslanuvchan bo'lishi zarur. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari sug'urta mukofotlari, sug'urta to'lovlari, zaxiralar va majburiyatlarni real iqtisodiy mazmuniga muvofiq aks ettirish imkonini beradi.

Sug'urta kompaniyalarining asosiy hisob obyektlari sug'urta shartnomalari, qayta sug'urta operatsiyalari, sug'urta da'volari, sug'urta qoplamalari, investitsion faoliyat va operatsion xarajatlar bilan bevosita bog'liq. Ushbu obyektlarning to'g'ri aks ettirilishi kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, kapital yetarliligi va to'lovga qodirligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatini baholashda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur: sug'urta faoliyatining qonuniyligi; tuzilgan sug'urta shartnomalarining iqtisodiy mazmuni; qayta sug'urta operatsiyalarining mavjudligi va samaradorligi; sug'urta da'volari hamda sug'urta qoplamalari o'rtasidagi bog'liqlik; sug'urta

vositachilarining faoliyati; investitsiya faoliyatining jozibadorligi; operatsion xarajatlarning to'g'ri taqsimlanishi; sug'urta ishtirokchilari faoliyatining xususiyatlari.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatining ayrim ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish moliyaviy barqarorlik darajasini baholashga imkon beradi. Quyida "O'zagrosug'urta" AJ faoliyatiga oid asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi keltirilgan.

2-jadval

"O'zagrosug'urta" AJ sug'urta tashkiloti ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich nomi	2023-yil 1-chorak	2024-yil 1-chorak	Dinamika, %	Farq (+/-)
Sug'urta mukofoti, mlrd so'm	42,4	44,7	105,4	+2,3
Sug'urta shartnomasi, ming nusxa	722,8	568,2	78,6	-154,6
Sug'urta javobgarligi, trln so'm	16,0	14,8	93,0	-1,2
Sug'urta qoplamasi, mlrd so'm	10,8	15,3	141,5	+4,5

Manba: "O'zagrosug'urta" AJning rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-choragida sug'urta mukofotlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 5,4 foizga oshgan. Shu bilan birga, sug'urta shartnomalari soni 21,4 foizga kamaygan, sug'urta javobgarligi esa 7,0 foizga qisqargan. Sug'urta qoplamalari miqdorining 41,5 foizga oshishi sug'urta tashkilotlari uchun risklarni baholash, zaxiralarni shakllantirish va to'lovga qodirlikni ta'minlash masalalarini yanada dolzarb qiladi.

Mazkur holat sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash orqali risklarni haqqoniy baholash, majburiyatlarni to'liq aks ettirish, moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlash va foydalanuvchilarga ishonchli axborot taqdim etish zarurligini ko'rsatadi. Xalqaro standartlar sug'urta shartnomalarining iqtisodiy mazmunini chuqurroq ochib berish, kelgusidagi pul oqimlarini baholash va sug'urta zaxiralarini asosli shakllantirish imkonini yaratadi.

Sug'urta kompaniyalarining keyingi rivojlanishini samarali tashkil etish uchun ularning kapitali va aktivlari hajmini oshirish, sug'urta operatsiyalari ko'lamini kengaytirish, sug'urta turlari xilma-xilligini ta'minlash, majburiy sug'urta yo'nalishlarini takomillashtirish, qayta sug'urta operatsiyalarini faollashtirish hamda sug'urta kompaniyalari ustidan prudensial nazorat tizimini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalarining yirik institutsional investor sifatidagi rolini oshirish, moliyaviy resurslarni samarali joylashtirish, xalqaro sug'urta bozorlariga

integratsiyalashuvni kuchaytirish va moliyaviy hisobotlarning ochiqligini ta'minlash mamlakat sug'urta bozorining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

5. Xulosa va takliflar

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xalqaro standartlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar sug'urta tashkilotlarining real moliyaviy holatini, majburiyatlari va zaxiralarini, pul oqimlarini hamda moliyaviy natijalarini aniq va shaffof aks ettirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni oshirish uchun, avvalo, ishonchli va taqqoslanuvchan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish zarur. Bu esa yagona axborot bazasini yaratish, xalqaro standartlarga mos hisob siyosatini ishlab chiqish, sug'urta zaxiralarini baholash metodikasini takomillashtirish va ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitaliga qo'yiladigan talablarni bosqichma-bosqich oshirish, aktivlar sifatini yaxshilash, qayta sug'urta mexanizmlarini kengaytirish va xalqaro audit amaliyotini rivojlantirish ularning to'lovga qodirligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning ochiqligi va foydalanuvchilar uchun tushunarligini ta'minlash sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Umuman olganda, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash milliy sug'urta bozorining raqobatbardoshligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy turg'unlik sharoitida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "Sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil, 15-son, 142-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son Qarori.

5. Полазнова Т.В. Учет доходов и расходов от страховых операций в страховых организациях. – Нижний Новгород, 2007. – 161 с.

6. Кузминов Н.Н. Особенности бухгалтерского учета в страховых компаниях. – М.: Анкил, 2000. – 204 с.

7. Алекринский А.Л., Архангельская Т.А., Асабина С.Н. и др. Аудит страховых компаний: практическое пособие для аудиторов и страховых организаций / под ред. В.И. Рябикина. – М.: Финстатинформ, 1995. – 128 с.

8. Петрова В.И., Петров А.Ю., Скачко Г.А. Бухгалтерский учет, анализ и аудит деятельности страховых организаций. – М.: Финансы и статистика, 2008. – 400 с.
9. Xodjayeva M.X. Sug'urta faoliyati buxgalteriya hisobi va auditing hozirgi ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari: i.f.n. dissertatsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi BMA, 2001. – 148 b.
10. International Monetary Fund. Financial Sector Assessment Program (FSAP) materials.
11. World Bank. IBRD Financial Statements, June 2019.
12. "O'zagrosug'urta" AJ rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

